

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**ICHKI ISHLAR ORGANLARINING EKSPERT-KRIMINALISTIKA
FAOLIYATINI ZAMONAVIY ILM-FAN YUTUQLARINI KENG JORIY
ETGAN HOLDA YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-
TADBIRLARI TO'G'RSIDA**

[Ko'chirma]

So'nggi yillarda mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga, shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish hamda ushbu sohada xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani joriy etishga qaratilgan samarali ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, jinoyat sodir etishda zamonaviy texnologiyalar va usullarni qo'llash butun dunyoda tobora ommalashib borayotganligini inobatga olib, shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish uchun aybliligini sudda ilmiy-texnik jihatdan asoslangan ishonchli dalillar bilan isbotlash jarayonlarini yanada takomillashtirish talab etilmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilayotgan tezkor-qidiruv tadbirlari, tergov va sud harakatlarida dalillarni to'plashda zamonaviy fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini, xususan kriminalistik ilmiy usul va vositalarni qo'llash amaliyotini yangi bosqichga olib chiqish lozim.

Sodir etilgan huquqbuzarliklarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda o'z vaqtida aniqlash va qisqa muddatlarda fosh etish, ashyoviy dalillarning kriminalistik tadqiqotlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika bo'linmalarining bu boradagi imkoniyatlarini oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin:

zamonaviy fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini, raqamli texnologiyalarni, kriminalistikaning yangi ilmiy usul va vositalarini qo'llash mexanizmlarini joriy etish, zamon talablariga mos avtomatlashtirilgan kriminalistik axborot-qidiruv tizimlari va axborot bazalarini yaratish;

axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan huquqbuzarliklar bo'yicha raqamli ekspertizaning imkoniyatlaridan keng foydalanish, bu borada kriminalistik hisoblarni yuritish;

shaxsga doir biometrik ma'lumotlar (genomga oid axborot, yuz qiyofasi, qo'l barmoq izlari) asosida avtomatlashtirilgan identifikatsiya tizimlarini qo'llash sohasini muvofiqlashtirish mexanizmlarini tatbiq qilish;

tezkor-qidiruv tadbirlari, tergov va sud harakatlarida ashyoviy dalillar tadqiqotining yangi turlari, innovatsion kriminalistik yondashuv, usul hamda texnik vositalarini keng joriy etish, bu borada laboratoriyalar faoliyatini xalqaro standartlar talabiga moslashtirish;

ashyoviy dalillarni isbot qilishda ularning ishonchliligini oshirish bo'yicha doimiy ravishda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish hamda sud-ekspertlik faoliyatiga tatbiq etish amaliyotini yo'lga qo'yish;

ekspert-kriminalistika sohasida kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha butunlay yangicha samarali o'quv-amaliyot jarayonini tashkil etish, ekspert-kriminalist xodimlarning mavqeyini ko'tarish hamda sud-ekspertlik faoliyatidagi xolisligi va mustaqilligini har tomonlama ta'minlash.

2. Ichki ishlar vazirligining quyidagi takliflari ma'qullansin:

Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markazi tuzilmasida ichki ishlar organlarining cheklangan shtat birliklari doirasida Genetik tadqiqotlar va Shaxsning genom axborotini davlat ro'yxatiga olish bo'limlarini tashkil etish;

Ichki ishlar vazirligi ta'sischi ligida o'qotar, pnevmatik, gazli, signal beruvchi, sovuq, uloqtiruvchi va boshqa qurollar, ularning o'q-dorilarini, maxsus vositalarni, o'q o'tkazmaydigan maxsus himoya vositalarini, elektroshok qurilmalari, pirotexnika buyumlari va portlovchi materiallarni sertifikatlashni amalga oshiruvchi davlat muassasasini tashkil etish;

ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika bo'linmalariga (keyingi o'rinlarda — ekspert-kriminalistika bo'linmalari) ekspert-kriminalistika sohasida jismoniy va yuridik shaxslarga shartnoma asosida ekspertlik, biometrik identifikatsiya, ilmiy-tadqiqot va axborot xizmatlarini hamda sohaga oid boshqa pullik xizmatlarni ko'rsatish huquqini berish;

maxsus ilmiy-texnik va intellektual salohiyatga ega shaxslarni mutaxassis yoki texnik ishchi sifatida ekspert-kriminalistika bo'linmalariga shartnoma asosida jalb etish amaliyotini yo'lga qo'yish.

3. Belgilansinki, sud-ekspertlik faoliyati qamrovini kengaytirish hamda zamonaviy fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini mamlakatimizda qo'llash amaliyotini joriy etish maqsadida ekspert-kriminalistika bo'linmalari tomonidan ekspertiza va tadqiqotlarning quyidagi yangi turlari o'tkazilishi yo'lga qo'yiladi:

a) 2022-yil yakuniga qadar:

video va fototexnika ekspertizasi, shu jumladan videoyozuvlarda qayd qilingan transport vositasining harakatlanish tezligini aniqlash ekspertizasi;

elektr ta'sirli qurollar ekspertizasi;

gazli qurollar ekspertizasi;

gaz-havo aralashmasi va fizik portlashlar ekspertizasi;
transport vositalariga o'rnatilgan gaz ballonlari portlashi
ekspertizasi;

odam DNKsi biologik ekspertizasi;

maxsus texnika va transport vositalarini baholash ekspertizasi;

ozuq-ovqat mahsulotlari ekspertizasi;

b) 2023-yil yakuniga qadar:

raqamli ma'lumotlar bazasi ekspertizasi;

Internet tarmog'ida bulutli servislar ekspertizasi;

fonoskopiya ekspertizasi.

Ichki ishlar vazirligi (Y. Abdulxakov, A. Ikramov) ekspert-kriminalistika bo'linmalari faoliyatiga kiritilayotgan ekspertiza va tadqiqotlarning yangi turlari bo'yicha metodikalarni ishlab chiqish hamda mazkur yo'nalishlar bo'yicha xodimlarni o'qitishni tashkil etish choralarini ko'rsin.

4. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markazi to'g'risida nizom [1-ilovaga](#) muvofiq;

Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" [2-ilovaga](#) muvofiq;

Ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika bo'linmalarini 2022-yilda moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlash dasturi [3-ilovaga*](#) muvofiq tasdiqlansin.

* [3-ilova e'lon qilinmaydi.](#)

Ichki ishlar vazirligi (Y. Abdulxakov, N. Turaxodjayev):

ikki oy muddatda 2022 — 2025-yillarga mo'ljallangan ichki ishlar organlarining tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov faoliyatida ashyoviy dalillar bo'yicha isbotlov bazasini mustahkamlash va raqamli axborot-qidiruv tizimlarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

2023-yil 1-yanvarga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunga muvofiq shaxs, buyum va hodisalar to'g'risida olingan axborotlar bo'yicha avtomatlashtirilgan kriminalistik axborot-qidiruv tizimini yaratish va joriy etish choralarini ko'rsin;

2023-yil yakuniga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda sud-tergov faoliyatida ashyoviy dalil sifatida olingan sintetik turdagi giyohvandlik, shuningdek, psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi dori vositalarining kimyoviy tarkibi bo'yicha markazlashgan axborot-qidiruv tizimini yaratish choralarini ko'rsin;

2022-yil 1-dekabr kuniga qadar ekspert-kriminalistika bo'linmalaridagi ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazishni ta'minlasin.

5. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Kriminalistik ekspertizalar kafedrasiga belgilangan tartibda tegishli sud ekspertizalari (daktiloskopik, trasologik, ballistik, sovuq qurollar, portret, xatshunoslik va boshqalar) va tadqiqotlarni o'tkazish huquqi beriladi;

sohaning ilmiy-texnik salohiyatini oshirish maqsadida ekspert-kriminalistika bo'linmalari xodimlari faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimi "motivatsiya-sharoit-rag'bat-natija" tamoyili asosida, mustaqil ekspertiza o'tkazish huquqini beruvchi guvohnomalar soni, o'tkazilgan ekspertizaning murakkabligi va jinoyatlarni fosh etishdagi hissasini qamrab oluvchi mezonlarga muvofiq tashkil etiladi.

Ichki ishlar vazirligi (A. Ikramov, R. Xatamov):

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida zamonaviy ekspert-kriminalistika jihozlari va texnik vositalar bilan jihozlangan o'quv-laboratoriya kompleksini tashkil etish choralarini ko'rsin va o'quv jarayonida undan keng foydalanilishini ta'minlasin;

2022/2023 o'quv yilidan boshlab Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining bakalavriat dasturi bo'yicha ta'lim tizimida "raqamli kriminalistika asoslari" fani o'qitilishini yo'lga qo'ysin.

6. Belgilansinki, ekspert-kriminalistika bo'linmalari tomonidan pullik xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar hamda fuqaroviy va xizmat qurollarini Davlat o'q-gilzotekasiga hisobga qo'yishdan tushadigan yig'imlar ichki ishlar organlarining budjetdan tashqari jamg'armalariga yo'naltiriladi va quyidagi maqsadlar uchun sarflanadi:

ashyoviy dalillar tadqiqotining zamonaviy usullari bo'yicha o'tkaziladigan ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlarini moliyalashtirish;

ekspert-kriminalistika bo'linmalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, texnologik rivojlantirish, shu jumladan, laboratoriya jihozlari, sarflash materiallari va maxsus kriminalistik texnik vositalar xarid qilish;

shaxsga doir biometrik ma'lumotlar bo'yicha avtomatlashtirilgan identifikatsiya tizimlarining namunaviy va tajribaviy loyihalarini sinovdan o'tkazish;

ekspert-kriminalistika faoliyatini xalqaro standart talablari asosida sertifikatlash va tadqiqot laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o'tkazish;

ekspert-kriminalistika faoliyatini amalga oshirish va maxsus kriminalistik laboratoriyalar ishini samarali tashkil etish maqsadida malakali, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish;

ekspert-kriminalistika bo'linmalarining xodimlarini xorijiy yetakchi turdosh idora, markaz va oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy kriminalistik ekspertiza turlari bo'yicha o'qitish;

ekspert-kriminalistika bo'linmalarining xodimlari, ishchi va xizmatchilarini, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik loyihalarini amalga oshirishda yaqindan ko'maklashgan fuqarolar va boshqa tashkilotlarning ilmiy xodimlarini moddiy rag'batlantirish;

xalqaro moliya institutlarining kreditlarini so'ndirish.

7. Sog'liqni saqlash vazirligi (B. Musayev) Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov) bilan birgalikda uch oy muddatda jinoyatlar sodir etilishining yangi uslublari hamda ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda sud-tibbiy ekspertizalarni o'tkazish sohasini yanada takomillashtirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

8. Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov) ikki oy muddatda:

texnologik rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda, ekspert-kriminalistika bo'linmalarini zamonaviy texnika, axborot-kommunikatsiya tizimlari va maxsus vositalar bilan ta'minlash me'yorini tasdiqlasin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga [4-
ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

10. Belgilansinki, mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar Ichki ishlar vazirligining asoslangan hisob-kitoblariga ko'ra har yili ajratiladigan budjet mablag'lari, Ichki ishlar vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

11. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsan javobgar etib ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonov va uning o'rinbosarlari Y. Abdulxakov, A. Ikramov, N. Turaxodjayev belgilansin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi B.D. Islamov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 8-fevral,
PQ-122-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-122-
son [qaroriga](#)
1-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ekspert-
kriminalistika bosh markazi to'g'risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markazi (keyingi o'rinlarda — Bosh markaz) ichki ishlar organlari va boshqa vakolatli davlat organlari faoliyatini texnik-kriminalistik ta'minlashni tashkil etadigan va amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (keyingi o'rinlarda — IIV) markaziy apparatining bosh boshqarma maqomiga ega mustaqil tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

2. Bosh markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasiga](#), O'zbekiston Respublikasining "[Ichki ishlar organlari to'g'risida](#)"gi, "[Genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risida](#)"gi, "[Qurol to'g'risida](#)"gi, "[Sud ekspertizasi to'g'risida](#)"gi va boshqa qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, IIVning idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

3. Ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika bo'linmalari (keyingi o'rinlarda — kriminalistika bo'linmalari) tizimiga quyidagilar kiradi:

Bosh markaz;

IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti va uning tarmoq tuzilmalarining ekspert-kriminalistika bo'limlari (bo'linmalari, guruhlari);

IIV Akademiyasi Kriminalistik ekspertizalar kafedrasini;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining ekspert-kriminalistika markazlari;

Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasining ekspert-kriminalistika bo'limi;

tuman (shahar) ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika bo'limlari (bo'linmalari, guruhlari) kiradi.

4. Bosh markaz O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'zining to'liq nomi davlat tilida yozilgan muhr va blank, shuningdek, shtampga ega bo'ladi.

Bosh markaz O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan ta'sis etiladigan o'zining ramziga ega bo'lishi mumkin.

2-bob. Bosh markazning asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Quyidagilar Bosh markazning asosiy vazifalari hisoblanadi: davlat sud-ekspertiza muassasasi sifatida ekspertiza va tadqiqotlar o'tkazish;

tezkor-qidiruv tadbirlari, tergovga qadar tekshiruv va tergov harakatlarini texnik-kriminalistik jihatdan ta'minlash;

kriminalistika bo'linmalari faoliyatini tashkiliy-uslubiy jihatdan ta'minlash va muvofiqlashtirish;

axborot-ma'lumotlar va kriminalistik hisoblar, kartotekalar va kolleksiyalarni tashkil etish va yuritish;

ilmiy-tadqiqot ishlari va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini, ularning amaliy aprotatsiyasini tashkil etish va o'tkazish, ekspert tadqiqotlarini o'tkazishni ta'minlash.

6. Bosh markaz o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) davlat sud-ekspertiza muassasasi sifatida quyidagi ekspertiza va tadqiqotlarni o'tkazadi:

daktiloskopiya ekspertizasi;

trasologiya ekspertizasi;

xatshunoslik ekspertizasi;

hujjatlarning texnik ekspertizasi;

ballistika ekspertizasi;

sovuq qurol ekspertizasi;

portret ekspertizasi;

fizik-kimyoviy ekspertiza, shu jumladan o'simlik va sintetik giyohvandlik vositalari va moddalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar, maxsus kimyoviy moddalar, qimmatbaho metallar va zargarlik buyumlari ekspertizalari;

yo'l-transport hodisasi mexanizmi ekspertizasi;

transport vositalarining texnik holati ekspertizasi;

transport trasologiyasi ekspertizasi;

maxsus texnika va transport vositalarini baholash ekspertizasi;

metall va nometall yuzalarda o'chirilgan markirovka belgilarini aniqlash ekspertizasi;

video va fototexnika ekspertizasi, shu jumladan videoyozuvlarda qayd qilingan transport vositasining harakatlanish tezligini aniqlash ekspertizasi;

oziq-ovqat mahsulotlari ekspertizasi;

qurilish-texnik ekspertiza;

buxgalterlik ekspertizasi;

odam DNKsi biologik ekspertizasi;

elektr ta'sirli qurollar ekspertizasi;

gazli qurollar ekspertizasi;

fonoskopiya ekspertizasi;

videoregistrator (videokuzatuv va qayd etish) qurilmalari ekspertizasi;

portlash texnik ekspertizasi, shu jumladan portlovchi moddalar ekspertizasi, portlatish jihozlari ekspertizasi, portlatish qurilmalari ekspertizasi, pirotexnika buyumlari ekspertizasi, gaz-havo aralashmasi va fizik portlashlar ekspertizasi, transport vositalariga o'rnatilgan gaz ballonlari portlashi ekspertizasi;

sud-kompyuter-texnik ekspertizasi, shu jumladan kompyuter-texnik ekspertizasi, mobil qurilmalar ekspertizasi, Internet tarmog'ida bulutli servislar ekspertizasi, raqamli ma'lumotlar bazasi ekspertizasi; tegishli mutaxassislar, zarur texnik vositalar bo'lganda boshqa turdagi ekspertizalar;

b) tezkor-qidiruv tadbirlari, tergovga qadar tekshiruv va tergov harakatlarini texnik-kriminalistik jihatdan ta'minlash sohasida:

ekspert tadqiqotlari, shuningdek, ekspertlarning tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarida ishtirok etish samaradorligini oshirish maqsadida ichki ishlar organlarining surishtiruv, tergov va tezkor bo'linmalari bilan hamkorlik qilish;

tezkor-qidiruv va tergov amaliyotining muayyan ashyoviy dalillarning ekspert tadqiqotlari bo'yicha ehtiyojlarini o'rganish va zaruratga ko'ra, yangi turdagi ekspertizalar o'tkazishni tashkil etish;

vakolatli davlat organlari uchun qo'shimcha, qayta, komissiyaviy va kompleks ekspertizalarni o'tkazishda ishtirok etish;

v) kriminalistika bo'linmalari faoliyatini tashkiliy-uslubiy jihatdan ta'minlash va muvofiqlashtirish sohasida:

kriminalistika bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish va unga uslubiy rahbarlik qilish, ishlarini rejalashtirishni tashkil etish, faoliyati yuzasidan o'rganish, inspektorlik tekshiruvlarini amalga oshirish;

kriminalistika bo'linmalariga ekspert tadqiqotlarini tashkil etish va o'tkazishda amaliy yordam ko'rsatish;

ichki ishlar organlari ekspertlarining xulosalarini taqrizdan o'tkazish, ekspert tadqiqotlarini o'tkazishda yo'l qo'yilgan xatolar yuzasidan sharhlarni tayyorlash;

ekspert-kriminalistika faoliyati yuzasidan uslubiy va boshqa qo'llanmalar, materiallarni ishlab chiqish hamda kriminalistika bo'linmalariga tarqatish;

kriminalistika bo'linmalari faoliyati samaradorligini tahlil va monitoring qilish, shuningdek, ekspert tadqiqotlarini o'tkazish samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

ekspert tadqiqotlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha o'quv-seminarlar tashkil etish, o'tkazish va ularda ishtirok etish;

ekspert amaliyotiga fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish;

ichki ishlar organlari ekspertlarini faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha, shuningdek, ichki ishlar organlarining boshqa manfaatdor bo'linmalari xodimlarini o'qitishni tashkil etish;

kriminalistika bo'linmalari xodimlarining bilimi, kasbiy tayyorgarligi, amaliy tajribasi darajasini va ekspertizalarni mustaqil ravishda bajarish salohiyatini baholash, shuningdek, sud

ekspertlarining noqonuniy harakatlari bilan bog'liq holatlarning adolatli va xolis ko'rib chiqilishini ta'minlash maqsadida IIV Ekspert-malaka komissiyasini tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash;

kriminalistika bo'linmalari xodimlarining muayyan sud-ekspertlik faoliyati bo'yicha malakasining, shuningdek, huquqiy bilimlari va tayyorgarligining yuqori darajasini ta'minlash maqsadida belgilangan tartibda ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish va stajirovka o'tashini tashkil etish;

boshqa vakolatli organlar davlat sud ekspertlarini Bosh markaz negizida ekspert-kriminalistika faoliyati bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga ko'maklashish;

IIV Akademiyasi tomonidan "ekspert-kriminalistika faoliyati" mutaxassisligi bo'yicha tayyorlangan o'quv dasturlarining amaliyotga mosligini kelishish, kursantlarning samarali amaliyot o'tashini tashkil etish, ularning bilim va ko'nikmalarini davriy monitoring va tahlil qilish;

kriminalistika bo'linmalariga kasbiy va axloqiy-psixologik tayyorgarlik hamda ma'naviy fazilatlarga ega bo'lgan kadrlarni tanlash;

kriminalistika bo'linmalari xodimlari o'rtasida xizmat intizomi va qonun buzilishi holatlarining oldini olish borasidagi ishlarni amalga oshirish, ularga nisbatan xizmat tekshiruvlari o'tkazish, tekshiruv natijalari bo'yicha tegishli choralar ko'rish;

g) axborot-ma'lumotlar va kriminalistik hisoblar, kartotekalar va kolleksiyalarni tashkil etish va yuritish sohasida:

jinoiy tajovuz obyektlari yoki hodisa joyini ko'zdan kechirish jarayonida olingan fotosuratlar, videoyozuvlar va boshqa portret ma'lumotlarini tashuvchi vositalardagi tasvirlar, fotorobotlar, subyektiv portretlar, qo'ldagi barmoq va kaft izlari bo'yicha huquqbuzarlarni identifikatsiyalash;

tanib olinmagan murdalarning fotosurati, shuningdek, tanib olinmagan murdalarning, ruhiy kasallikka chalingan va boshqa sabablarga ko'ra o'zi haqida aniq ma'lumotlar bera olmaydigan tirik shaxslarning daktokartalari bo'yicha shaxsini aniqlash;

ichki ishlar organlarining surishtiruv, tergov va tezkor bo'linmalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarning boshqa davlat organlari, ilmiy muassasalari va tashkilotlari, o'quv yurtlari bilan hamkorlik asosida shaxsni identifikatsiyalash tizimini takomillashtirishni ta'minlash;

portlovchi materiallar, qo'lbola usulda tayyorlangan portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, shu jumladan qo'lbola usulda yasalgan portlatish qurilmalari, portlatgichlar (qo'zg'atish vositalari), qo'lbola portlovchi moddalar va portlatish qurilmalarini tayyorlashda ishlatiladigan moddalar, materiallar va buyumlarning hisobini,

avtomatlashtirilgan daktiloskopik hisobini, shuningdek, tezkor vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda boshqa turdagi hisoblarni shakllantirish va yuritish;

shaxs portreti bo'yicha identifikatsiyalashning avtomatlashtirilgan kartotekasini, avtomatlashtirilgan multibiometrik ma'lumotlar kartotekasini yuritish;

qalbaki pullar, shu jumladan chet el valyutalari kartotekasini yuritish;

o'simlik va sintetik giyohvandlik vositalari va moddalari, psixotrop va kuchli ruhiy ta'sir qiluvchi moddalar kolleksiyasi, qalbaki hujjatlar va qimmatli qog'ozlar kartotekasini yuritish;

portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, pirotexnika buyumlari va ularning tarkibiy komponentlari bo'yicha axborot-ma'lumot kartotekasini, portlovchi materiallardan foydalangan holda sodir etilgan terrorchilik harakatlari kartotekasini, portlovchi qurilmalarni tayyorlash uslublari va maxsus ma'lumotlar kartotekasini, shuningdek, tezkor vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqa turdagi kartotekalarni yuritish;

hodisa sodir bo'lgan joydan olingan, shuningdek, fuqaroviy va xizmat o'qotar qurolidan nazorat tartibida otilgan, qurol izlari tushgan o'qlar, gilza va patronlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Davlat o'q-gilzotekasini yuritish;

o'qotar, pnevmatik, gazli, signal beruvchi, sovuq, uloqtiruvchi va boshqa xildagi qurollar, ularning o'q-dorilari, shuningdek, elektroshok qurilmalari kolleksiyasini yuritish;

ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarida, shuningdek, texnik vosita hamda butlovchi ehtiyot qism sifatida foydalanish uchun tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov davrida ashyoviy dalil sifatida protsessual tartibda olingan raqamli axborot tashuvchi qurilmalar (mobil telefon, smartfon, planshet, kompyuter texnikasi, videoregistrator, qattiq disk, flesh xotira va tashqi jamlagichlar) kolleksiyasini shakllantirish va yuritish;

shaxsning genom axboroti bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yuritish;

hisoblar, kartotekalar va kolleksiyalarni yuritish samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

kriminalistika bo'linmalariga kriminalistik hisoblar, kartotekalar va kolleksiyalarni shakllantirish hamda yuritish masalalari bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish;

d) ilmiy-tadqiqot ishlari va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini, ularning amaliy aprotatsiyasini tashkil etish va o'tkazish, ekspert tadqiqotlarini o'tkazishni ta'minlash sohasida:

ilmiy-tadqiqot ishlari va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarida ishtirok etish va bevosita bajarish;

ekspert tadqiqotlarining yangi uslublarini ishlab chiqish;
portlatish qurilmalarini qo'llagan holda sodir etilgan terrorchilik harakatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, ularning oldini olish va chek qo'yish borasida takliflar tayyorlash;

ekspert amaliyoti tahlili asosida tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarini ilmiy-texnik vositalar va uslublar bilan texnik-kriminalistik jihatdan ta'minlashni takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash;

sodir etilgan terrorchilik harakatlarida qo'llanilgan portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari va portlatish usullari bo'yicha tahliliy materiallarni tayyorlash.

Bosh markaz qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Bosh markazning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

7. Bosh markaz o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

IIV bo'linmalaridan, boshqa davlat organlari va tashkilotlaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, axborot-tahlillar va hisobot ma'lumotlarni tayyorlash uchun o'zaro hamkorlik asosida zarur bo'lgan hujjatlar, ma'lumot va boshqa materiallarni so'rab olish;

kriminalistika bo'linmalarining hujjatlari va materiallari bilan tanishish, ularning ijrosi yuzasidan zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;

boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda, IIV hay'atida va tezkor yig'ilishlarda ko'rib chiqilishi uchun axborot-tahlil materiallari va boshqa hujjatlarni tayyorlashda IIVning tegishli sohaviy xizmatlarini belgilangan tartibda jalb etish;

ekspert-kriminalistika faoliyatidagi maxsus bilimlar va texnik vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda davlat muassasasini ta'sis etish;

jismoniy va yuridik shaxslarga ekspert-kriminalistika faoliyati sohasida shartnoma asosida ekspertiza, biometrik identifikatsiya, ilmiy-tadqiqot va axborot xizmatlarini hamda sohaga oid boshqa pullik xizmatlarni ko'rsatish;

hisobot davrlariga muvofiq kriminalistika bo'linmalari ishlarining yakunlarini umumlashtirish;

yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida ichki ishlar organlarining ma'lumotlar bazalaridan foydalanish;

xalqaro va milliy grant dasturlarida ishtirok etish;

ichki ishlar organlarining boshqa xizmat yo'nalishlari bo'yicha hujjatlarning Bosh markaz vakolatiga kiruvchi masalalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etish;

Bosh markaz faoliyatiga oid masalalar bo'yicha xizmat tekshiruvlari materiallari va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

kriminalistika bo'linmalari tomonidan bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalar, sharh va topshiriqlar yuborish;

kriminalistika bo'linmalari rahbarlarining sohaviy yo'nalishlar bo'yicha hisobotlarini eshitish;

kriminalistika bo'linmalarida qonuniylikka va xizmat intizomiga rioya etilishi holatini tekshirish;

kriminalistika bo'linmalarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash, xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha takliflar kiritish;

Bosh markaz vakolatiga oid masalalar bo'yicha ilmiy-amaliy institutlar, muassasalar, korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

ekspert tadqiqotlarini o'tkazish va tezkor-qidiruv tadbirlari hamda tergov harakatlarini texnik-kriminalistik jihatdan ta'minlash masalalari borasida respublika va xorijiy davlatlarning ekspertiza muassasalari bilan belgilangan tartibda hamkorlik qilish;

kriminalistika bo'linmalari faoliyatiga IIVning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan fuqarolarni mutaxassis sifatida shartnoma asosida jalb etish;

ichki ishlar organlari budjetdan tashqari jamg'armalarining kriminalistika bo'linmalariga tegishli vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklari depozit hisobvaraqlariga joylashtirish.

Bosh markaz qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

8. Bosh markaz quyidagi majburiyatlarga ega:

o'z vakolatlari doirasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish choralari ko'rish;

zaruratga ko'ra, hodisa sodir bo'lgan joyda kriminalistika bo'linmalari xodimlarining ishtirokini ta'minlash;

o'z vakolatlari doirasida ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika faoliyatida qonuniylikka qat'iy rioya etilishini ta'minlash;

ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borish;

kriminalistika bo'linmalari faoliyati haqida ma'lumot tayyorlash va IIV rahbariyatiga taqdim etish.

Bosh markaz qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

9. Bosh markaz unga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi uchun javobgardir.

4-bob. Bosh markaz faoliyatini tashkil etish

10. Bosh markazga O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi

bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan boshliq rahbarlik qiladi.

Bosh markaz boshlig'i O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan uch nafar o'rinbosarga, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinbosarga ega.

11. Bosh markaz boshlig'i:

Bosh markaz faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi va Bosh markazga yuklangan vazifalar, funksiyalar hamda majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi;

o'zining o'rinbosarlari o'rtasida funksional majburiyatlarni belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

Bosh markazning ish rejalarini tasdiqlaydi;

kriminalistika bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitadi;

o'zining vakolati doirasida ichki ishlar organlarida ekspert-kriminalistika faoliyatini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar va topshiriqlar chiqaradi hamda IIV rahbariyatiga ichki ishlar organlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan farmoyishlar loyihasini kiritadi;

ekspert-kriminalistika faoliyatini amalga oshirishda ichki ishlar organlarining boshqa bo'linmalari bilan hamkorlikni muvofiqlashtiradi;

kriminalistika bo'linmalarining xizmat faoliyati natijalarini, ularning ishini tekshirish materiallarini ko'rib chiqadi;

kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, boshqa lavozimga o'tkazish, kasbiy tayyorgarligi, xizmat intizomiga rioya etilishini tashkillashtiradi, kriminalistika bo'linmalari xodimlarini o'rnatilgan tartibda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslariga yuboradi;

IIV rahbariyatiga belgilangan tartibda Bosh markaz xodimlariga maxsus unvonlar berish, ularni rag'batlantirish, shu jumladan taqdirlash, ularga nisbatan intizomiy jazolar qo'llash haqida takliflar kiritadi;

Bosh markaz faoliyatiga doir hujjatlarni tasdiqlaydi, mablag'larni tasarruf etadi, fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tuzadi;

ichki ishlar organlari budjetdan tashqari jamg'armalarining kriminalistika bo'linmalariga tegishli mablag'larining kriminalistika bo'linmalari ehtiyoji uchun sarflanishini belgilaydi;

IIV rahbariyatiga faoliyat natijalaridan kelib chiqib, kriminalistika bo'linmalarining xodimlari, ishchi va xizmatchilarga lavozim maoshining 100 foizi, genetik tadqiqotlar o'tkazish va shaxsning genom ma'lumotlari bo'yicha davlat ro'yxatiga olish bilan shug'ullanadigan alohida mutaxassislikka ega shaxsiy tarkibiga — 200 foizi miqdorigacha ichki ishlar organlari budjetdan tashqari jamg'armalarining kriminalistika bo'linmalariga tegishli mablag'lari hisobidan har oylik ustama haq belgilash haqida takliflar kiritadi;

Bosh markaz xodimlarini belgilangan tartibda xizmat safarlariga yuboradi;

o'z vakolatlari doirasida Bosh markaz xodimlariga ta'tillar beradi;

belgilangan tartibda Bosh markazda safarbarlik tayyorgarligi va fuqaro muhofazasi tadbirlarining bajarilishini ta'minlaydi va tashkil etadi;

Bosh markazda maxfiylik tartibotiga rioya etilishini tashkil etishga, shu jumladan ma'lumotlarning texnik xavfsizligi bo'yicha tadbirlar o'tkazilishiga javob beradi;

kriminalistika bo'linmalari faoliyatini bevosita yoki o'zining o'rinbosarlari orqali nazorat qiladi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha kriminalistika bo'linmalari xodimlarining xatti-harakatlari qonuniyligini, shuningdek, xodimlar tomonidan har bir aniqlangan qonuniylik va xizmat intizomi buzilishi holatlarining belgilangan tartibda tekshirilishini ta'minlaydi;

kriminalistika bo'linmalarining shtatlar sonini qayta taqsimlash to'g'risida takliflar kiritadi;

IIV Ekspert-malaka komissiyasiga raislik qiladi;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

12. Bosh markaz boshlig'i bo'lmaganda, uning vakolatlari birinchi o'rinbosar tomonidan amalga oshiriladi.

5-bob. Kriminalistika bo'linmalarida kadrlar bilan ishlash qoidalari

13. Bosh markazning ofitser tarkibidagi xodimlari Bosh markaz boshlig'ining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Kriminalistika bo'linmalarining ofitser tarkibidagi barcha rahbar va xodimlari belgilangan tartibda ichki ishlar organlari vakolatli rahbarlari tomonidan Bosh markaz bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

14. Kriminalistika bo'linmalari shtat tuzilishiga kiritiladigan o'zgartirishlar Bosh markaz boshlig'i bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

15. Kriminalistika bo'linmalari, qoida tariqasida, IIV Akademiyasining "ekspert-kriminalistika faoliyati" mutaxassisligini tamomlagan yoki xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalariga xalqaro shartnoma asosida kriminalistika yo'nalishida ta'lim olish uchun yuborilgan bitiruvchilari orasidan jamlanadi.

Mazkur bandning [birinchi xatboshisida](#) ko'rsatilgan xodimlar sirasiga kirmagan nomzodlar kriminalistika bo'linmalarining lavozimlariga birinchi marta tayinlanayotgan hollarda majburiy

tartibda ekspert-kriminalistika faoliyati asoslari hamda tegishli ekspertiza turiga oid umumiy bilimlari bo'yicha malaka imtihonlarini topshiradi va muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarga xodimning shaxsiy hujjatlar yig'majildiga birlashtiriladigan ekspert-kriminalistika faoliyatini amalga oshirishga ruxsatnoma beriladi.

Kriminalistika bo'linmalarining ofitser tarkibidagi lavozimlariga faqat IIV Akademiyasining "ekspert-kriminalistika faoliyati" mutaxassisligini tamomlaganligi yoki xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalariga xalqaro shartnoma asosida yuborilib, kriminalistika yo'nalishida ta'lim olganligi to'g'risidagi diplomga yoxud ekspert-kriminalistika faoliyatini amalga oshirishga ruxsatnomaga ega bo'lgan nomzodlar tayinlanadi.

Ekspert-kriminalistika faoliyati asoslari va tegishli ekspertiza turiga oid umumiy bilimlari bo'yicha malaka imtihonlarini o'tkazish hamda ekspert-kriminalistika faoliyatini amalga oshirishga ruxsatnoma berish tartibi O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi.

16. Kriminalistika bo'linmalariga xizmatga qabul qilish va ularda xizmatni o'tash davrida, istisno tariqasida, harbiy-tibbiy komissiya talablari hamda kasbiy tanlov tartibi, shuningdek, jismoniy tayyorgarlik mezonlari soddalashtirilgan holda belgilanadi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

17. Ish yuritish va maxfiylik tartiboti bo'yicha tadbirlar Bosh markaz tomonidan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

18. Kriminalistika bo'linmalari kriminalistik texnika va boshqa moddiy-texnika vositalari hamda uskunalar bilan belgilangan tartibda jihozlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-122-son [qaroriga](#)
2-ILOVA

Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

T/r	Tadbirlarning nomi	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	Ekspert-kriminalistika faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda zamonaviy fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini, raqamli texnologiyalarni, kriminalistik ilmiy usul va vositalarni qo'llashni takomillashtirish.	Avtomatlashtirilgan va markazlashtirilgan kriminalistik axborot-qidiruv tizimlari bo'yicha texnik topshiriqlar	2022-yil may	Ichki ishlar vazirligi (N. Turaxodjayev, Y. Abdulxakov),

				Moliya vazirligi (A. Xaydarov)
2.	Qonun asosida shaxs, buyum va hodisalar to'g'risida olingan axborotlar bo'yicha avtomatlashtirilgan kriminalistik axborot-qidiruv tizimini joriy etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2022-yil may	Ichki ishlar vazirligi (N. Turaxodjayev, Y. Abdulxakov), manfaatdor vazirlik va idoralar
3.	2022 — 2025-yillarga mo'ljallangan ichki ishlar organlarining tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov faoliyatida ashyoviy dalillar bo'yicha isbotlov bazasini mustahkamlash va raqamli axborot-qidiruv tizimlarini rivojlantirishning konsepsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat	2022-yil aprel	Ichki ishlar vazirligi (Sh. Sobirov, N. Turaxodjayev, Y. Abdulxakov)
4.	Shaxsning jinoyatga daxldorligini aniqlash va gumondan chiqarish bo'yicha sud-tergov harakatlari jarayoniga sud ekspertizasining zamonaviy turlarini joriy etish.	Ichki ishlar vazirligi Ekspert-malakaviy komissiyasi qarori	2022-2023-yillar	Ichki ishlar vazirligi (Y. Abdulxakov)
5.	Ekspert-kriminalistika bo'linmalari tomonidan quyidagi yangi turdagi ekspertiza va tadqiqotlarni o'tkazish amaliyotini joriy etish bo'yicha zarur tashkiliy va o'quv-amaliy choralarni ko'rish: 2022-yil yakuniga qadar: maxsus texnika va transport vositalarini baholash ekspertizasi; video va fototexnika ekspertizasi, shu jumladan videoyozuvlarda qayd qilingan transport vositasining harakatlanish tezligini aniqlash ekspertizasi; oziq-ovqat mahsulotlari ekspertizasi; odam DNKsi biologik ekspertizasi;	Tashkiliy chora-tadbirlar dasturi	2022-2023-yillar	Ichki ishlar vazirligi (Y. Abdulxakov, A. Abidjanov), Adliya vazirligi (R. Davletov), Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Inoyatov), Moliya vazirligi (A. Xaydarov), manfaatdor vazirlik va idoralar

	<p>elektr ta'sirli qurollar ekspertizasi;</p> <p>gazli qurollar ekspertizasi;</p> <p>gaz-havo aralashmasi va fizik portlashlar ekspertizasi;</p> <p>transport vositalariga o'rnatilgan gaz ballonlari portlashi ekspertizasi;</p> <p>2023-yil yakuniga qadar:</p> <p>fonoskopiya ekspertizasi;</p> <p>Internet tarmog'idagi bulutli servislar ekspertizasi;</p> <p>raqamli ma'lumotlar bazasi ekspertizasi.</p>			
7.	<p>Ekspert-kriminalistika bo'linmalari, shu jumladan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Kriminalistik ekspertizalar kafedrasi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga shartnoma asosida ekspert-kriminalistika faoliyati sohasida ekspertlik, biometrik identifikatsiya, ilmiy-tadqiqot va axborot xizmatlarini hamda sohaga oid boshqa pullik xizmatlarni ko'rsatish tartibini belgilash.</p>	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat	2022-yil avgust	Ichki ishlar vazirligi <i>(P. Bobojonov)</i>
8.	<p>O'zbekiston Respublikasining "Genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markazi tuzilmasida Genetik tadqiqotlar va Shaxsning genom axborotini davlat ro'yxatiga olish bo'limlarini tashkil etish hamda ushbu bo'limlarni malakali xodimlar bilan to'ldirish.</p>	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat	2022-yil aprel	Ichki ishlar vazirligi <i>(Y. Abdulxakov, A. Ikramov)</i>
9.	<p>Genetik tadqiqotlar o'tkazish va shaxsning genom axborotini davlat ro'yxatiga olish bilan shug'ullanadigan alohida mutaxassislikka ega xodimlarga, shu jumladan ishchi va xizmatchilarga har oylik ustama haq tayinlash tartibini belgilash.</p>			
10.	<p>Ichki ishlar vazirligi ta'sischi ligida o'qotar, pnevmatik, gazli, signal beruvchi, sovuq, uloqtiruvchi va boshqa qurol, uning o'q-dorilarini,</p>	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat	2022-yil iyun	Ichki ishlar vazirligi

	maxsus vositalarni, o'q o'tkazmaydigan maxsus himoya vositalarini, elektroshok qurilmalari, pirotexnika buyumlari va portlovchi materiallarni sertifikatlash organini tashkil etish.			(Y. Abdulxakov, A. Abidjanov)
11.	Ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika bo'linmalarini zamonaviy texnika, axborot-kommunikatsiya tizimlari va maxsus vositalar bilan ta'minlash me'yorini tasdiqlash.	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat	2022-yil aprel	Ichki ishlar vazirligi (Y. Abdulxakov, A. Abidjanov)
12.	O'qotar, pnevmatik, gazli, signal beruvchi, sovuq, uloqtiruvchi va boshqa qurol, uning o'q-dorilarini, maxsus vositalarni, o'q o'tkazmaydigan maxsus himoya vositalarini, elektroshok qurilmalari, pirotexnika buyumlari va portlovchi materiallarning texnik xususiyatlarini va chegaraviy parametrlarini belgilovchi texnik reglamentlarini ishlab chiqish.	Tegishli texnik reglament va standartlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar	2022-yil sentyabr	Ichki ishlar vazirligi (Y. Abdulxakov) Mudofaa vazirligi (A. Norboyev) Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (B. Gulyamov) Texnik jihatdan tartibga solish agentligi (D. Sattarov)
13.	Ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika bo'linmalaridagi ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-yil dekabr	Ichki ishlar vazirligi (Y. Abdulxakov)
14.	"Motivatsiya-sharoit-rag'bat-natija" tamoyili asosida, mustaqil ekspertiza o'tkazish huquqini beruvchi guvohnomalar soni, o'tkazilgan ekspertizaning murakkabligi va jinoyatlarni fosh etishdagi hissasini qamrab oluvchi mezonlarga muvofiq ekspert-kriminalistika bo'linmalari xodimlari faoliyatini baholash va rag'batlantirish tartibini belgilash.	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat	2022-yil iyun	Ichki ishlar vazirligi (A. Ikramov, Y. Abdulxakov)

15.	Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan zamonaviy ekspert-kriminalistika jihozlari va texnik vositalar bilan jihozlangan o'quv-laboratoriya kompleksini tashkil etish va o'quv jarayonida undan foydalanilishini ta'minlash.	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat	2022-yil mart (qabul qilish) 2023-yil iyul (yakunlash)	Ichki ishlar vazirligi (A. Ikramov, R. Xatamov)
16.	Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Kriminalistik ekspertizalar kafedrasidan tomonidan tegishli sud ekspertizalari (daktiloskopik, trasologik, ballistik, sovuq qurollar, portret, xatshunoslik va boshq.) va tadqiqotlarni o'tkazish tartibini belgilash va ushbu amaliyotni yo'lga qo'yish.	Ichki ishlar vazirligi Ekspert-malakaviy komissiyasi qarori	2022-yil dekabr	Ichki ishlar vazirligi (Y. Abdulxakov, A. Ikramov, R. Xatamov)
17.	Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida "raqamli kriminalistika asoslari" fanini o'qitishni yo'lga qo'yish.	O'quv-metodik materiallar	2022-yil dekabr	Ichki ishlar vazirligi (A. Ikramov, Y. Abdulxakov, R. Xatamov)
18.	Maxsus ilmiy-texnik va intellektual salohiyatga ega shaxslarni mutaxassis yoki texnik ishchi sifatida ekspert-kriminalistika bo'linmalariga shartnoma asosida jalb etish tartibini belgilash va bu amaliyotni yo'lga qo'yish.	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat	2022-yil may	Ichki ishlar vazirligi (A. Ikramov) Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi (A. Inakov)
19.	Ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika bo'linmalari xodimlari va Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi professor-o'qituvchilarini xorijiy mamlakatlarning (Hindiston, Turkiya, Koreya, Belarus, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy) yetakchi turdosh idora, markaz va oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy kriminalistik ekspertiza turlari bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarida o'qitishni tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar dasturi	2022-yil aprel (Dasturni tasdiqlash) 2022-2023-yillar (Dastur ijrosi)	Ichki ishlar vazirligi (Y. Abdulxakov, R. Xatamov), Tashqi ishlar vazirligi (A. Kamilov)
20.	Ekspert-kriminalistika tadbirlarini o'tkazish orqali kibermakondagi jinoyatlarni aniqlash va fosh etish metodikalarini ishlab chiqish.	O'quv-amaliy qo'llanmalar kompleksi	2022-yil davomida	Ichki ishlar vazirligi

				(<i>Y. Abdulxakov, R. Xatamov</i>)
21.	Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti o'quv jarayoniga xorijiy yetakchi ta'lim muassasalarining zamonaviy kriminalistik ekspertiza sohasidagi malakali pedagoglari va mutaxassislarini shartnoma asosida jalb etgan holda ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika bo'linmalarining barcha xodimlarini qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida o'qitishni tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-yil davomida	Ichki ishlar vazirligi (<i>A. Ikramov, O. Axmedov</i>)
22.	Yetakchi xorijiy davlatlarning ekspert-kriminalistik, sud-ekspertiza, ilmiy-tadqiqot va boshqa turdosh tashkilotlari bilan xalqaro shartnomalar tuzish va qo'shma dasturlarni amalga oshirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-2023-yillar	Ichki ishlar vazirligi (<i>Y. Abdulxakov</i>)
23.	Kibermakonda sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish hamda zamonaviy kriminalistik ekspertiza faoliyatini ilmiy va uslubiy jihatdan tadqiq etishga yo'naltirilgan xalqaro va davlat grantlarida Ichki ishlar vazirligining ishtirokini tashkil etish choralarini ko'rish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar	Ichki ishlar vazirligi (<i>Y. Abdulxakov, I. Fazilov</i>) Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>I. Abduraxmonov</i>)
24.	Sintetik turdagi giyohvandlik, shuningdek, psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi dori vositalarini ekspertizadan o'tkazishga mo'ljallangan maxsus kimyoviy laboratoriya uskunalari xorijiy donorlar va xalqaro grantlar yordamida xarid qilish choralarini ko'rish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-2023-yillar	Ichki ishlar vazirligi (<i>Sh. Sobirov, Y. Abdulxakov</i>)
25.	Sud-tergov faoliyatida ashyoviy dalil sifatida olingan sintetik turdagi giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi dori vositalarining kimyoviy tarkibi bo'yicha markazlashgan axborot-qidiruv tizimini yaratish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-2023-yillar	Ichki ishlar vazirligi (<i>Y. Abdulxakov, N. Turaxodjayev</i>) Narkotik moddalarni nazorat qilish

				milliy axborot-tahlil markazi (O. Narzullayev)
26.	Ekspert-kriminalistika bo'linmalarida uchuvchisiz uchish qurilmalari yordamida odamning yuz qiyofasini identifikatsiya qilish hamda giyohvand o'simliklarni videotasvir orqali aniqlash bo'yicha avtomatlashtirilgan tizimni joriy etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-2023-yillar	Ichki ishlar vazirligi (N. Turaxodjayev, Sh. Sobirov)
27.	Hududiy ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika bo'linmalarida axborot tashuvchi qurilmalardagi o'chirilgan, zararlangan va qulflangan ma'lumotlarni qayta tiklash tadqiqotini o'tkazishni bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-2023-yillar	Ichki ishlar vazirligi (Y. Abdulxakov, N. Turaxodjayev)
28.	Ichki ishlar vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ekspert-kriminalistika bo'linmalarida kamida 15 yillik amaliy ish tajribasiga ega bo'lib, pensiyaga chiqqan tajribali mutaxassislarni Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi ekspertiza o'tkazishni o'qitish bo'yicha o'quv jarayonlariga shartnoma asosida jalb etish amaliyotini yo'lga qo'yish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-yil avgust	Ichki ishlar vazirligi (A. Ikramov, R. Xatamov)
29.	Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi "ekspert-kriminalistika faoliyati" mutaxassisligi bo'yicha kunduzgi ta'lim shakliga kirish istagidagi abituriyentlarni imtihondan o'tkazish jarayonida Ekspert-kriminalistika bosh markazi vakillarining ishtirokini ta'minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy ravishda	Ichki ishlar vazirligi (A. Ikramov, R. Xatamov)
30.	Hududiy ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika bo'linmalari xodimlari tomonidan Ichki ishlar vazirligining akademik litseylari o'quv jarayonlarida kriminalistika fani bo'yicha muntazam ravishda o'quv-amaliy mashg'ulotlar o'tkazib borishni yo'lga qo'yish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy ravishda	Ichki ishlar vazirligi (A. Ikramov, Y. Abdulxakov)
31.	Har yili ichki ishlar organlari tizimida "Eng namunali ekspert-kriminalistika jamoasi" va "Eng yaxshi ekspert-kriminalist" respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish tartibini joriy etish.	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat	2022-yil aprel	Ichki ishlar vazirligi (A. Ikramov, Y. Abdulxakov)

32.	Ekspert-kriminalistika sohasini zamonaviy tahdidlarga moslashtirish va ilg'or yutuqlar asosida rivojlantirishning istiqbollariga bag'ishlangan yuqori saviyadagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani o'tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar dasturi	2022-yil oktyabr	Ichki ishlar vazirligi (Y. Abdulxakov, R. Xatamov), Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirlik va idoralar
-----	---	-----------------------------------	------------------	---

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrda PQ-448-sonli [qarori](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2022-y., 07/22/448/1115)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-122-son [qaroriga](#)
4-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2898-son qarorida 4-bandning [uchinchi xatboshisi](#), [8-bandi](#), shuningdek qarorga [2-ilova](#) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrda PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi [nizomda](#):

a) 15-bandning [beshinchi xatboshisi](#) "ish yuritish" so'zlaridan oldin "ekspert-kriminalistika," so'zlari bilan to'ldirilsin;

b) [40-bandda](#):

[to'qqizinchi xatboshi](#) "Ichki ishlar organlari profilaktika," so'zlaridan keyin "ekspert-kriminalistika," so'zlari bilan to'ldirilsin;

[o'ninchi xatboshi](#) "ichki ishlar organlari profilaktika," "profilaktika inspektori," va "profilaktika katta inspektori," so'zlaridan keyin tegishincha "ekspert-kriminalistika," "eksperti" va "katta eksperti" so'zlari bilan to'ldirilsin;

[o'n birinchi xatboshisi](#) "ichki ishlar organlari profilaktika," "profilaktika katta inspektori," va "katta tezkor vakili" so'zlaridan keyin tegishincha "ekspert-kriminalistika," "katta eksperti" va "bosh eksperti" so'zlari bilan to'ldirilsin.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2022-y., 07/22/122/0109-son, 23.12.2022-y., 07/22/448/1115)